HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

IMPROVING THE ACTIVITY OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET

Javohirbek Oybek o‘g‘li Hamroxonov

Master's student at the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916666

Abstract: This article examines the theoretical-methodological and practical aspects of improving the activity of commercial banks in the securities market. Based on statistical data, the role of banks in the Republic of Uzbekistan as issuers, investors, and professional participants of the securities market is analysed, and advanced foreign experience is comparatively studied. As a result of the research, the main problems hindering the development of banks' activity in this market are identified, and scientifically grounded proposals for their elimination are developed.

Keywords: commercial banks, securities market, corporate bonds, investment activity, capital market, liquidity, financial intermediation, risk management.

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirishning nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorida banklarning emitent, investor va professional ishtirokchi sifatidagi roli statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi qiyosiy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida banklarning ushbu bozordagi faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy muammolar aniqlangan hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, qimmatli qog‘ozlar bozori, korporativ obligatsiyalar, investitsion faoliyat, kapital bozori, likvidlik, moliyaviy vositachilik, risklarni boshqarish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ

Аннотация: В статье исследованы теоретико-методологические и практические аспекты совершенствования деятельности коммерческих банков на рынке ценных бумаг. На основе статистических данных проанализирована роль банков Республики Узбекистан как эмитентов, инвесторов и профессиональных участников рынка ценных бумаг, а также проведён сравнительный анализ передового зарубежного опыта. В результате исследования выявлены основные проблемы, сдерживающие развитие деятельности банков на данном рынке, и разработаны научно обоснованные предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческие банки, рынок ценных бумаг, корпоративные облигации, инвестиционная деятельность, рынок капитала, ликвидность, финансовое посредничество, управление рисками.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Kirish

Zamonaviy moliyaviy tizimning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan kapital bozori infratuzilmasining samaradorligiga, xususan, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faol ishtirokiga bog‘liqdir. Tijorat banklari an’anaviy kredit-depozit vositachiligi bilan bir qatorda qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish, ular bilan savdo qilish, investorlarga xizmat ko‘rsatish hamda portfel boshqaruvi kabi funksiyalarni bajarib, iqtisodiyotni uzoq muddatli resurslar bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2017 yildan boshlangan iqtisodiy islohotlar, xususan, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda keйingi yillardagi kapital bozorini rivojlantirish konsepsiyalari doirasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtiroki sezilarli darajada faollashdi. Shu bilan birga, bank tizimining ushbu bozordagi salohiyati hali to‘liq ro‘yobga chiqarilmagan bo‘lib, likvidlik yetishmovchiligi, institutsional investorlar bazasining torligi va risklarni boshqarish tizimidagi kamchiliklar dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya, investitsion va vositachilik faoliyati, predmeti sifatida esa ushbu faoliyatni tashkil etish va takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar belgilangan. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatining nazariy-uslubiy asoslarini tizimlashtirish; ikkinchidan, milliy bozorning amaldagi holatini statistik ma’lumotlar asosida baholash; uchinchidan, xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish; to‘rtinchidan, aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Qimmatli qog‘ozlar bozorining samaradorligi masalasi jahon iqtisodiy fanida uzoq tarixga ega bo‘lib, samarali bozor gipotezasi[1] zamonaviy moliyaviy vositachilik nazariyasining metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, bozor narxlari mavjud barcha axborotni to‘liq aks ettiradi va bu, o‘z navbatida, banklarning informatsion vositachi sifatidagi rolini yanada dolzarblashtiradi.

Bank faoliyatining moliya bozori bilan o‘zaro bog‘liqligi masalalari[2] zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ular banklarning universal model asosida faoliyat yuritishi kapital bozori likvidligini oshirishning muhim omili ekanligini asoslab berishgan. Mahalliy iqtisodchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa O‘zbekiston sharoitida bank tizimi va qimmatli qog‘ozlar bozori integratsiyasining institutsional-huquqiy masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

[1] Fama, E.F. (1970) “Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work”, Journal of Finance, 25(2), pp. 383–417 — samarali bozor gipotezasining klassik ta’rifi.

[2] Mishkin, F.S. (2019) The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th edn. New York: Pearson, p. 214.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini raqamli transformatsiya sharoitida takomillashtirish masalalari yetarlicha kompleks tarzda yoritilmagan, bu esa ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Xususan, Rose va Hudgins tomonidan ishlab chiqilgan bank menejmenti nazariyasida qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarish bank aktivlari va passivlarini muvofiqlashtirishning (assets-liabilities management) ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv tijorat banklari uchun qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni nafaqat qo‘shimcha daromad manbai, balki likvidlikni boshqarishning strategik vositasi sifatida baholash zaruriyatini asoslaydi. Mahalliy iqtisodchi Ш.З. Абдуллаева tadqiqotlarida esa O‘zbekiston bank tizimining rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, bank kapitalini kengaytirishda qimmatli qog‘ozlar bozori mexanizmlaridan foydalanishning institutsional shart-sharoitlari ko‘rib chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, monografik va abstrakt-mantiqiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlar bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Respublika qimmatli qog‘ozlar birjasi (QIB) hamda xalqaro moliya institutlarining rasmiy statistik hisobotlaridan foydalanildi. Xorijiy tajribani o‘rganishda qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil metodlari qo‘llanildi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatining nazariy asoslari

Qimmatli qog‘ozlar bozorida tijorat banklari uch xil funksional maqomda ishtirok etadi: birinchidan, emitent sifatida — o‘z obligatsiyalari va depozit sertifikatlarini chiqarish orqali resurs jalb qiladi; ikkinchidan, institutsional investor sifatida — boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlariga mablag‘ joylashtiradi; uchinchidan, professional ishtirokchi (broker, diler, kastodian, ishonchli boshqaruvchi) sifatida mijozlarga xizmat ko‘rsatadi.

Ushbu uch yo‘nalishning uyg‘un rivojlanishi bank tizimining moliyaviy vositachilik samaradorligini oshiradi, real sektorni uzoq muddatli investitsiya resurslari bilan ta’minlaydi hamda kredit portfeliga bog‘liqlikni kamaytirib, daromadlar tarkibini diversifikatsiya qiladi.

Bunda alohida ta’kidlash joizki[3], tijorat banklari nafaqat o‘z resurslarini jalb etish, balki mamlakat ichki investorlar bazasini shakllantirishda ham katta salohiyatga ega, chunki ular keng filial tarmog‘i va mijozlar bazasiga ega yagona moliyaviy institutlardir.

Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini tashkil etish ikki asosiy model asosida tasniflanadi: universal (Germaniya-Yaponiya) model, unda bank barcha bank va investitsion xizmatlarni yagona tashkilot doirasida amalga oshiradi, hamda segmentlashgan (Anglo-Sakson) model, unda tijorat va investitsion bank faoliyati institutsional jihatdan ajratilgan. Har ikki model ham o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega: universal model masshtab samarasini ta’minlasa, segmentlashgan model tizimli risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston uchun, ushbu ikki modelning ijobiy jihatlarini uyg‘unlashtirgan aralash yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari — QIBda faoliyat yurituvchi eng yirik institutsional emitentlar va investorlar guruhini tashkil etadi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati tahlili

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 1-jadvalda 2021–2024 yillar mobaynida bank tizimining asosiy bozor ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekiston tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati dinamikasi

Ko‘rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Tijorat banklari chiqargan obligatsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	1 842	2 915	4 368	6 021
Banklarning aksiyalar bozoridagi kapitalizatsiyasi, mlrd. so‘m	11 340	13 205	15 870	18 640
Respublika QIB savdo hajmidagi ulushi, %	18,4	21,7	26,3	31,5
Banklararo REPO operatsiyalari hajmi, mlrd. so‘m	3 210	4 480	6 095	8 340

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil etilayotgan davrda banklar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar hajmi 3,3 baravardan ortiq o‘sgan, bu esa banklarning qarz kapitali bozoridan resurs jalb etish faolligining oshganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, banklarning Respublika QIB umumiy savdo hajmidagi ulushi 2021 yildagi 18,4 foizdan 2024 yilda 31,5 foizga yetgan, bu esa bank tizimining bozor infratuzilmasidagi rolining kuchayganini ko‘rsatadi.

Shunga qaramay, banklararo REPO operatsiyalari hajmining nisbatan sekin o‘sishi ikkilamchi bozor likvidligining hali yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatib, bu holat quyida ko‘rib chiqiladigan tizimli muammolar bilan bog‘liqdir.

Xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar bozorida turlicha institutsional modellar asosida faoliyat yuritadi. 2-jadvalda ba’zi davlatlarning banklar va QQ bozori o‘zaro integratsiyasi bo‘yicha tajribasi qiyoslangan.

2-jadval. Xorijiy davlatlarda banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ishtiroki modellari

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Davlat	Banklarning QQ bozoridagi ishtiroki modeli	Asosiy tashkiliy-huquqiy vosita
AQSH	Investitsion va tijorat bank faoliyatining institutsional ajratilishi (universal modelga qisman qaytish)	Glass–Steagall va Gramm–Leach–Bliley qonunlari, SEC nazorati
Germaniya	Universal bank modeli — banklar QQ bozorining barcha segmentlarida faol qatnashadi	BaFin nazorati, Deutsche Börse infratuzilmasi
Janubiy Koreya	Davlat ishtirokidagi rivojlantiruvchi banklar orqali korporativ obligatsiyalar bozorini rag‘batlantirish	KDB, KRX birjasi, kredit reyting agentliklari tizimi
Rossiya Federatsiyasi	Banklarning qimmatli qog‘ozlarni emissiya qilish va broker-diler faoliyatini birgalikda amalga oshirishi	Rossiya Banki mega-regulyator maqomi, Moskva birjasi

Keltirilgan tajribadan ko‘rinadiki, universal bank modelini qo‘llovchi davlatlarda (Germaniya misolida) banklarning QQ bozoridagi ishtiroki yuqori darajada integratsiyalashgan bo‘lib, bu bozor likvidligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbekiston uchun aralash model — ya’ni banklarning asosiy emitent va investor funksiyalarini saqlagan holda, professional ishtirokchilik faoliyatini ixtisoslashtirilgan sho‘ba tashkilotlar orqali kengaytirish — maqsadga muvofiqdir.

Banklar faoliyatidagi muammolar va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari

O‘tkazilgan tahlil natijalari tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini cheklovchi bir qator tizimli muammolarni aniqlashga imkon berdi. Xususan, ikkilamchi bozorda market-meyker[4] institutining yetarlicha rivojlanmaganligi savdo faolligini pasaytirmoqda.

Shuningdek, risklarni boshqarish sohasida zamonaviy metodlar, jumladan VaR[5] kabi miqdoriy baholash usullarining bank amaliyotida to‘liq joriy etilmaganligi qimmatli qog‘ozlar portfeli bo‘yicha risklarni operativ nazorat qilishni murakkablashtirmoqda.

Aniqlangan muammolar va ularga mos takomillashtirish yo‘nalishlari 3-jadvalda umumlashtirilgan.

[4]Market-meyker — birja savdolarida doimiy ravishda sotib olish va sotish kotirovkalarini e’lon qilib, bozor likvidligini ta’minlovchi professional ishtirokchi.

[5]VaR (Value at Risk) — belgilangan ishonch oralig‘ida va vaqt davomida portfelning kutilayotgan maksimal zararini baholovchi risk o‘lchovi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

3-jadval. Muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari

Muammo	Takomillashtirish yo‘nalishi
Ikkilamchi bozorning past likvidligi	Market-meyker instituti va bank tomonidan kotirovka qo‘yish majburiyatini joriy etish
Xususiy investorlarning past moliyaviy savodxonligi	Banklar tomonidan investitsion konsalting va moliyaviy ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish
Risklarni boshqarishning zaif metodologik bazasi	VaR va stress-test modellarini bank ichki nazorat tizimiga tatbiq etish
Rag‘batlantiruvchi soliq mexanizmlarining yetarli emasligi	Uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha soliq imtiyozlari doirasini kengaytirish
Raqamli infratuzilmaning yetarli integratsiyalashmaganligi	Blokcheyn asosidagi hisob-kitob va depozitar tizimlarini joriy etish

Bundan tashqari, bank kapitalining sifati va yetarliligiga qo‘yiladigan xalqaro talablar[6] qimmatli qog‘ozlar portfeli bilan bog‘liq risklarni ham qamrab olishi lozim, bu esa banklarning ushbu bozordagi faoliyatini kengaytirishda ehtiyotkorlik bilan yondashuvni talab etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish faqat institutsional o‘zgarishlar bilan chegaralanmasligi, balki raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishi zarur.

Raqamli transformatsiya sharoitida banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati

Zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini sifat jihatidan o‘zgartirmoqda. Elektron savdo platformalari, mobil ilovalar orqali investitsion xizmatlar ko‘rsatish, robo-advaĭzing (avtomatlashtirilgan investitsion maslahat berish) tizimlari banklarga xarajatlarni kamaytirgan holda keng mijozlar bazasiga xizmat ko‘rsatish imkonini bermoqda.

Taqsimlangan reyestr texnologiyalari (blokcheyn) asosidagi hisob-kitob tizimlarining joriy etilishi bitimlarni amalga oshirish muddatini T+2 dan deyarli real vaqt rejimigacha qisqartirish, shuningdek operatsion risklarni kamaytirish salohiyatiga ega. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli obligatsiyalar (digital bonds) emissiyasini yo‘lga qo‘ygan banklar emissiya xarajatlarini o‘rtacha 20–30 foizga qisqartirishga erishgan.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya kiberxavfsizlik va ma’lumotlarni himoya qilish borasida yangi risklarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi

[6]Basel III standartlari doirasida bank kapitalining sifati va yetarliligi qimmatli qog‘ozlar portfeli riskini ham qamrab oladi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

raqamli infratuzilmasini rivojlantirish kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish bilan bir vaqtda amalga oshirilishi lozim. O‘zbekiston misolida markazlashgan depozitar tizimini zamonaviylashtirish va elektron emissiya jarayonlarini soddalashtirish kichik va o‘rta biznes emitentlari uchun bozorga chiqish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, bu esa bozor ishtirokchilari sonining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish mumkin:

1) tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsa-da, ikkilamchi bozor likvidligi va institutsional investorlar bazasi hali yetarli darajada rivojlanmagan;

2) xorijiy tajribadan kelib chiqib, banklar tomonidan market-meyker faoliyatini rivojlantirish va kotirovka qo‘yish majburiyatlarini joriy etish ikkilamchi bozor likvidligini sezilarli darajada oshirishi mumkin;

3) risklarni boshqarishning zamonaviy miqdoriy usullarini (VaR, stress-testlar) bank ichki nazorat tizimiga tatbiq etish qimmatli qog‘ozlar portfeli sifatini yaxshilaydi;

4) uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarga nisbatan soliq imtiyozlari tizimini kengaytirish va aholi hamda korxonalarning moliyaviy savodxonligini oshirish investorlar bazasini kengaytirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi;

5) hisob-kitob va depozitar infratuzilmasini raqamlashtirish, jumladan zamonaviy taqsimlangan reyestr texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish, operatsion xarajatlarni kamaytirib, bozor shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan takliflarning kompleks tarzda amalga oshirilishi tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib, milliy kapital bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kelgusi tadqiqotlar doirasida tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati samaradorligini miqdoriy baholashning ekonometrik modellarini ishlab chiqish, shuningdek banklarning ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) mezonlariga mos “yashil obligatsiyalar” bozoridagi ishtirokini kengaytirish masalalarini chuqur o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston kapital bozorining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv jarayonini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bodie, Z., Kane, A. and Marcus, A.J. (2021) Investments. 12th edn. New York: McGraw-Hill Education.
2. Fama, E.F. (1970) “Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work”, Journal of Finance, 25(2), pp. 383–417.
3. Mishkin, F.S. (2019) The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 12th edn. New York: Pearson.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

4. Rose, P.S. and Hudgins, S.C. (2013) Bank Management and Financial Services. 9th edn. New York: McGraw-Hill.
5. Sharpe, W.F. (1964) “Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk”, Journal of Finance, 19(3), pp. 425–442.
6. Лаврушин, О.И. (2020) Банковское дело. 12-е изд. Москва: КноРус.
7. Миркин, Я.М. (2018) Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. Москва: Альпина Паблишер.
8. Абдуллаева, Ш.З. (2019) Банк ишининг назарий асослари. Тошкент: Молия-иқтисод.
9. Каримов, Н.Ғ. (2022) Ўзбекистонда қимматли қоғозлар бозорини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. Тошкент: Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий журнали.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024) Yillik hisobot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PF-6041-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Toshkent: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
12. Respublika qimmatli qog‘ozlar birjasi “Toshkent” (2024) Statistik byulleten. Toshkent: RQQB “Toshkent”.
13. World Bank (2023) Global Financial Development Report: Bank Regulation and Supervision a Decade after the Global Financial Crisis. Washington, DC: World Bank Group.
14. International Monetary Fund (2023) Global Financial Stability Report. Washington, DC: IMF.